

TASDIQLANGAN

“O‘zbektelekom” AK
aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi
qarori 2024-yil 15-avgustdagi 64-son
bayonnoma

**“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasida
manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida
NIZOM
(yangi tahrirda)**

Toshkent-2024

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur Nizom “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi (keyingi o‘rinlarda – Kompaniya)ning tarkibiy bo‘linmalarida manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, uning oldini olish va tartibga solish qoidalarini belgilaydi.

2. Ushbu Nizom qoidalariga egallab turgan lavozimi va bajarayotgan xizmat vakolatlaridan qat’i nazar Kompaniyaning barcha xodimlari amal qilishi majbur.

3. Mazkur Nizom Kompaniyada yuzaga kelgan mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va boshqarish masalalaridagi asosiy ichki hujjat hisoblanadi va unga barcha xodimlar tomonidan so‘zsiz rioya qilinishi shart.

4. “O‘zbektelekom” AK boshqaruv raisi tomonidan tayinlanadigan ijroiya apparati va filiallar xodimlari (filiallar direktorlari, direktorlar o‘rinbosarlari, bosh buxgalterlar va/yoki bosh buxgalter vazifalari yuklatilgan lavozimlar va boshqalar)da ehtimoliy yoki mavjud manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq masalalar Kompaniyaning maxsus bo‘linmasi tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

Kompaniya filiallarining qolgan xodimlarida ehtimoliy yoki mavjud manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq masalalar Personal bilan ishlash uchun mas’ul xizmat yoki bo‘limlar (keyingi o‘rinlarda – PBIX) tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

5. Mazkur Nizom maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

aloqador shaxslar – Kompaniya xodimining yaqin qarindoshlari; Kompaniya xodimi va (yoki) uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa, o‘sha yuridik shaxs; Kompaniya xodimi yoxud uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsda boshqaruv organining rahbari yoki a’zosi bo‘lsa, o‘sha yuridik shaxs;

Kompaniya xodimi - Kompaniyada mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida yoxud saylab qo‘yiladigan yoki tayinlanadigan lavozimlarda mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan boshqaruv xodimi;

kronizm – do‘stlar yoki ishonchli shaxslarga noqonuniy imtiyozlar taqdim etish maqsadida lavozim mavqeyidan va obro‘sidan foydalanish;

manfaatlar to‘qnashuvi – Kompaniya xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o‘z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to‘qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan (ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi) vaziyat;

manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish – xodimlar tomonidan ehtimoliy yoki mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida e’lon qilish tartib-taomili;

manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish – Kompaniya tomonidan xodimlarning xizmat majburiyatlari lozim darajada bajarilmasligi holati va (yoki) manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelganda ularning manfaatlari (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy va boshqa manfaatlar) Kompaniya manfaatlaridan ustun kelishi xavfini kamaytirish yoki bartaraf etish;

manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha maxsus bo‘linma (keyingi o‘rinda - maxsus bo‘linma) — Kompaniyaning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmasi;

mahalliychilik – shaxsni uning nasliy kelib chiqishi (aslzoda yoki mashhur sulola vakili ekanligi va u jamoatchilik tomonidan e’tirof etilganligi) hamda yaqin qarindoshlarining egallab turgan xizmat mavqeyi sababli, uning lavozimga qo‘yiladigan malaka talablariga mos kelish-kelmasligini hisobga olmagan holda ishga qabul qilish, rotatsiya qilish va lavozimga tayinlash;

nepotizm (tanish-bilishchilik, qarindosh-urug‘chilik; favoritizmning qarindoshlik rishtalariga asoslangan ko‘rinishi) – o‘zining yaqin qarindoshlari yoki do‘stlariga noqonuniy imtiyozlar berish maqsadida mansabdan foydalanish va (yoki) ta’sir o‘tkazish, shuningdek, yaqin qarindoshlari va (yoki) do‘stlariga asossiz mukofotlar hisoblash, Kompaniya manfaatlarini zararga, yaqin qarindoshlari va do‘stlarini ishga qabul qilish va lavozimga tayinlashlar;

urug‘-aymoqchilik – Kompaniya xodimining avlod-ajdodlari bir bo‘lgan, bir sulolaga mansublik asosida uchinchi shaxslarga nisbatan subyektiv, imtiyozli va noxolis munosabat shaklidagi shaxsiy manfaatdorligi;

favoritizm – Kompaniya xodimi boshqa shaxs va/yoki shaxslar guruhi manfaatlariga qaraganda bitta shaxs yoki shaxslar guruhi manfaatlariga ustuvor ahamiyat qaratishi, Kompaniyada kadrlarni tanlash va joylashtirish, lavozimini ko‘tarish, mukofot puli berish va davlat mukofotlariga tavsiya etish, ta’til berish yoki sihatgohlar va xorijiy safarlarga yuborish, murojaatlar, shuningdek, ish va navbatchilik jadvalarini ko‘rib chiqishda ketma-ketlikni yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq vaziyatlarda tartiblarga rioya qilmaslik;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi – Kompaniya xodimi yoxud u bilan aloqador shaxslar ushbu xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita qaror qabul qilinishi yoki xodimning ushbu jarayonda boshqacha tarzda ishtirok etishi natijasida olishi mumkin bo‘lgan har qanday naf yoki afzallik;

shafelik – Kompaniya xodimining lavozimi yuqoriroq bo‘lgan boshqa xodim tomonidan qulay mehnat sharoitlarini yaratib berish shaklidagi himoyasi, uni yoqlab yonini olishi;

yaqin qarindoshlar – ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o‘g‘illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek, er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

2-BOB. MANFAATLAR TO‘QNASHUVINI BOSHQARISHNING TAMOIYILLARI

6. Kompaniya xodimlari manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish masalalarida quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilishlari shart:

qonuniylik;

fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning va davlatning qonuniy manfaatlarini ustuvorligi;

korruptsiyaga nisbatan murosasizlik;

Kompaniya manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun qo‘yish;

oshkoralik, vijdonlilik, xolislik asosida qarorlar qabul qilish;

ehtimoliy yoki mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi axborotni oshkor qilishning shartligi;

manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha profilaktik choralarning ustuvorligi;

manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini ko‘rib chiqish va manfaatlar to‘qnashuvini hal qilishda jamoaviylikka amal qilish;

manfaatlar to‘qnashuvi alomatlari bilan tavsiflangan vaziyatlarni ko‘rib chiqish, baholash va hal qilishda xolis yondashuv;

belgilangan tartibda manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash;

agar xodim biron-bir qaror qabul qilishdan avval yoki o‘ziga yuklatilgan funksiyalarni bajarishdan oldin manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida tegishli tartibda xabar bergan hamda Kompaniya manfaatlari foydasiga o‘z shaxsiy manfaatlaridan voz kechishga tayyor bo‘lsa, uni ehtimoliy yoki mavjud manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi sababli ishdan bo‘shatilishiga yo‘l qo‘yilmasligi;

shaffoflik va hisobdorlik;

shaxsiy javobgarlik va jazoning muqarrarligi.

3-BOB. KOMPANIYA XODIMLARINING MAJBURIYATLARI VA VAKOLATLARI

7. Kompaniya xodimlari o‘zlarining xizmat majburiyatlarini bajarishda va (yoki) Kompaniyaning manfaatlarini ifodalashda ushbu Nizomda belgilangan tamoyillarga amal qilishlari, shuningdek, manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan vaziyatlardan o‘zlarini saqlashlari shart.

8. Xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish uchun Kompaniya xodimlari:

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni (keying o‘rinlarda – Qonun) talablariga rioya qilishi;

ushbu Nizom talablariga rioya qilishi;

faqat Kompaniya manfaatlarini ko‘zlashi;

o‘z mansab va xizmat mavqeyidan faqat Kompaniya manfaatlari yo‘lida foydalanishi;

Kompaniya manfaatlariga zid keladigan yoki zid kelishi mumkin bo‘lgan shaxsiy manfaatlar to‘g‘risida Kompaniyaning maxsus bo‘linmasini xabardor qilishi;

nepotizm (qarindoshlik), shafelik, favoritizm, kronizm, mahalliychilik va urug‘-aymoqchilikning namoyon bo‘lishiga qat’iy chek qo‘yishi;

ehtimoliy yoki mavjud manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi ma’lumotlarni o‘z vaqtida va to‘liq oshkor qilishi;

o‘zining yaqin qarindoshlari va aloqador shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning to‘liq ro‘yxatini vijdonan oshkor qilishi;

Kompaniyaning boshqa xodimlarida manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligiga oid ma’lumotga ega bo‘lgan taqdirda ichki hujjatlarda belgilangan tartibda xabar berishi shart.

9. Manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish maqsadida Kompaniya xodimi quyidagi hollarda manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabar berishi kerak, agar:

xodimning bevosita bo‘ysunuvida yaqin qarindoshlari va (yoki) aloqador shaxslar bo‘lsa;

belgilangan tartibda faoliyati o‘rganilayotgan Kompaniyaning bo‘linma va filiallarida xodimning yaqin qarindoshlari va (yoki) aloqador shaxslar faoliyat yuritisa yoki belgilangan tartibda faoliyati o‘rganilayotgan mansabdor shaxs xodimning yaqin qarindoshi va (yoki) aloqador shaxs bo‘lsa;

Kompaniya xodimi yaqin qarindoshlari va (yoki) aloqador shaxslarga nisbatan xodimlarga (jumladan, ish haqini hisoblash va to‘lash, mukofotlar, ustamalarga taqdim etish va ularning miqdorini belgilashga) oid qarorlar qabul qilishda ishtirok etsa.

Mazkur ro‘yxat yakuniy hisoblanmaydi. Kompaniya xodimi yaqin qarindoshlari va (yoki) aloqador shaxslarga nisbatan (ular faoliyat yuritayotgan tashkilotlarga) har qanday qarorlar qabul qilish (imtiyozlar berish, litsenziyalar taqdim etish, mahsulotlar sotib olish va shu kabilar) holati potensial manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqarishi mumkin. Bunday hollarda, Kompaniya xodimi manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabar berishi lozim bo‘ladi.

10. Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish maqsadida Kompaniya xodimi:

xizmat mavqeyini suiiste‘mol qilish orqali shaxsiy naf olishga;

manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi axborotni oshkor etish chog‘ida ma‘lumotlarni yashirishga yoxud bila turib yolg‘on yoki noto‘g‘ri axborot taqdim etishga;

biri boshqasiga bo‘ysunuvchi yoki biri boshqasining nazoratidagi tashkilotlarda o‘rindoshlik bo‘yicha ishlashga, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;

tijorat tashkilotlarining ta‘sischisi (aksiyadori, ishtirokchisi) bo‘lishga, bundan aksiyadorlik jamiyatlarining erkin muomalada bo‘lgan aksiyalarining o‘n foizigacha egalik qilish hollari mustasno;

o‘zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan Kompaniya nazoratida bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati subyektning aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilishga, shuningdek, ushbu tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organi a‘zosi bo‘lishga, bundan O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida nazarda tutilgan yoki bu faoliyat qonunchilikka muvofiq lavozim majburiyatlari hisoblanadigan hollar mustasno. Bunda, Kompaniya nazoratida bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati subyektlarining aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilgan yoxud mazkur tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organlari a‘zosi bo‘lgan shaxs mazkur Kompaniya xodimi lavozimini egallagan hollarda, u qonunchilikda belgilangan tartibda ushbu aksiyalarni yoki ulushlarni bir oy ichida realizatsiya qilishi, boshqaruv organlarining a‘zolidan chiqishi kerak;

Kompaniyada o‘ziga taalluqli bo‘lgan ishlarni ko‘rib chiqishda yoki o‘ziga aloqador shaxslarga taalluqli bo‘lgan ishlarni ko‘rib chiqishda vakil sifatida ishtirok etishga, agar u qonunchilikka muvofiq qonuniy vakil bo‘lmasa;

Kompaniyaning mol-mulkini sotib olishda yoki ijaraga olishda o‘zi ishtirok etishga haqli emas.

Kompaniyaning o‘zi bilan mehnat shartnomasi tugatilgan yoki xizmatdan bo‘shatilgan xodimi ikki yil ichida oxirgi ish joyida o‘zi bevosita yoki bilvosita nazoratni amalga oshirgan tashkilotlar yoki ularning tarkibiy bo‘linmalari tomonidan ishga ushbu xodim mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirgan tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi nazorat bo‘linmasi vazifasini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarning xulosasiga asosan qabul qilinadi.

Ushbu bandning birinchi qismi beshinchi xatboshida ko‘rsatilgan cheklov faqat Kompaniya rahbariyatiga nisbatan tatbiq etiladi.

Ushbu bandning birinchi qismi sakkizinchi xatboshida ko‘rsatilgan cheklov Kompaniya xodimiga aloqador shaxslarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Kompaniya xodimi lavozim majburiyatlarining yoki xizmat vakolatlarining o‘ziga xos xususiyati hisobga olingan holda, unga nisbatan qonunchilikda belgilangan boshqa cheklovlar qo‘llanilishi mumkin.

11. Kompaniyada manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash borasida quyidagilar amalga oshiriladi:

xodimlarni ishga qabul qilish yoki lavozimga tayinlashda, shuningdek, boshqa holatlarda manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqaruvchi axborot jamlanadi;

boshqaruv raisi tomonidan tayinlanadigan Kompaniya ijroiya apparati va filiallardagi har bir xodim mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarishda ehtimoliy yoki mavjud manfaatlar to‘qnashuvi holatini aniqlaydi hamda o‘zining rahbariga va maxsus bo‘linmaga xabar beradi;

Kompaniya filiallarining qolgan xodimlari mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarishda ehtimoliy yoki mavjud manfaatlar to‘qnashuvi holatini aniqlaydi hamda o‘zining rahbariga va PBIXga xabar beradi;

manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan har bir ma’lumot yoki xabar kollegial tartibda o‘rganilib, uning ta’siri aniqlanadi.

Qonun hujjatlari talablari doirasida manfaatlar to‘qnashuvini aniqlashning boshqa usullari ham qo‘llanilishi mumkin.

12. Manfaatlar to‘qnashuvi quyidagicha boshqariladi:

xodimlarni ishga qabul qilishda ular mazkur Nizom talablari bilan imzo qo‘ydirilgan holda tanishtiriladi;

Nizom talablari bo‘yicha xodimlarga tushuntirish va maslahatlar berish ishlari olib boriladi;

aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari ro‘yxatga olib boriladi;

manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini o‘rganish, ularga baho berish hamda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishga qaratilgan choralarni belgilash Kompaniyaning PBID va maxsus bo‘linma tomonidan amalga oshiriladi;

manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish jarayonining samaradorligini ta’minlash maqsadida monitoring amalga oshiriladi.

Manfaatlar to‘qnashuvi boshqarilishida qonun hujjatlari talablari asosida boshqarishning boshqa usullari ham qo‘llanilishi mumkin.

13. Manfaatlar to‘qnashuvi hollarini tartibga solish uchun ularning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi choralardan biri ko‘rilishi kerak:

xodimning tegishli faoliyatni amalga oshirishda yoki qaror qabul qilishda ixtiyoriy ravishda ishtirok etmasligi yoki chetlashishiga ruxsat berish;

o‘ziga nisbatan manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan rahbarning bevosita bo‘ysunuvidagi Kompaniya xodimini manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelmaydigan boshqa rahbarning bo‘ysunuviga o‘tkazish;

Kompaniya xodimini manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kollegial organ tarkibidan ixtiyoriy ravishda o‘zini o‘zi rad etish orqali yoki majburan chetlashtirish;

Kompaniya xodimining lavozim majburiyatlari yoki xizmat vakolatlari doirasini qayta ko‘rib chiqish;

Kompaniya xodimining Kompaniyaning manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan axborotidan va hujjatlaridan foydalanishiga cheklovlar belgilash;

Kompaniya xodimining yakka tartibda qarorlar qabul qilishga doir vakolatlarini qonunchilikka muvofiq amalga oshirishi ustidan kollegial nazoratni ta’minlash;

Kompaniya xodimiga o‘zidagi shaxsiy manfaatdorlikni qonunchilikka muvofiq bartaraf etishi to‘g‘risida takliflar taqdim etish;

Kompaniya xodim tomonidan o‘zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan Kompaniyaning manfaatlariga zid bo‘lgan shaxsiy manfaatdorligidan voz kechishi;

Kompaniya xodimining shaxsiy manfaatdorligini bartaraf etish choralari ko‘rish mumkin bo‘lmagan taqdirda, xodimning roziligi asosida uni avvalgi lavozimiga teng boshqa lavozimga o‘tkazish yoki mehnat shartnomasini (kontrakti) umumiy asoslarda bekor qilish.

Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha choralar Kompaniya xodimining roziligi bilan ko‘rilishi kerak.

Kompaniya tomonidan manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solishga doir choralarni ko‘rish chog‘ida biror-bir shaxslarga, guruhlariga yoki tashkilotlarga afzallik, ustunlik berishga yoxud Kompaniya xodimlarini, shuningdek, fuqarolarni kamsitishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Kompaniya o‘z xodimi bilan o‘zaro kelishuvga ko‘ra, manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish yuzasidan qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa choralarni ham ko‘rishi mumkin.

4-BOB. KOMPANIYANING MANFAATLAR TO‘QNASHUVI BILAN BOG‘LIQ MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLISH SOHASIDAGI ODOB-AXLOQ, MEHNAT NIZOSI VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH KOMISSIYASINING VA MAXSUS BO‘LINMANING VAKOLATLARI

14. Kompaniya xodimi tomonidan Qonun va ushbu Nizom talablariga rioya etilishi ustidan nazorat Kompaniyada tuzilgan Odob-axloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

15. Odob-axloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi:

Kompaniya xodimi tomonidan Qonunda va ushbu Nizomda belgilangan talablarga rioya etilishini ta‘minlash choralari ko‘radi;

manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish yuzasidan ko‘rilayotgan choralarning yetarliligi (to‘g‘riligi) haqidagi masalalarni ko‘rib chiqadi;

mavjud manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq hollar ustidan kollegial nazoratni amalga oshiradi;

Qonunda va ushbu Nizomda belgilangan Kompaniya xodimlari tomonidan buzilishlar mavjudligi (mavjud emasligi) to‘g‘risida xizmat tekshiruv natijalariga ko‘ra xulosa chiqaradi;

manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabar qilmagan, bila turib yolg‘on yoki noto‘g‘ri axborot taqdim etgan yoxud bunday axborotni yashirgan xodimni javobgarlikka tortish haqida Kompaniya rahbariga taklif kiritadi.

Odob-axloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

16. Maxsus bo‘linma manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasida quyidagi vakolatlarga ega:

Kompaniya xodimi tomonidan aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi hollari to‘g‘risidagi axborotni umumlashtiradi;

Kompaniyaning Qonun va ushbu Nizom talablarini buzgan xodimiga nisbatan xizmat tekshiruvini o‘tkazadi;

Kompaniya xodimlari o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish yuzasidan qonunchilikka muvofiq tushuntirish ishlarini amalga oshiradi;

Kompaniya ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalarni, shuningdek, mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnomani ko‘rib chiqadi, ularning natijalariga ko‘ra Odob-axloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasiga takliflar kiritadi;

Kompaniyaning manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi xabarlar munosabati bilan manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi to‘g‘risida xulosa beradi;

Kompaniyada aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi hollarini tahlil qiladi hamda ularni tartibga solish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqadi;

Kompaniyada Qonun va ushbu Nizom talablariga rioya etilishi holati to‘g‘risidagi har yilgi hisobotlarni tayyorlaydi hamda hisobotlar uning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta‘minlaydi.

Maxsus bo‘linma qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

5-BOB. MANFAATLAR TO‘QNASHUVI HAQIDAGI MA’LUMOTLARNI OSHKOR QILISH VA KO‘RIB CHIQISH TARTIBI

1-§ Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi axborotni oshkor etish

17. Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi axborotni oshkor etish Kompaniya xodimi tomonidan mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabarnoma hamda ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida deklaratsiya taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

Kompaniya xodimiga aloqador shaxslar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi axborotni oshkor etish ularning ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etishi orqali amalga oshiriladi.

2-§ Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi axborotni oshkor qilishning umumiy qoidalari

18. Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnoma 1-ilovada keltirilgan shaklda to‘liq ma’lumotlar ko‘rsatilgan holda to‘ldiriladi.

19. Kompaniya xodimi quyidagi hollarda mavjud manfaatlar to‘qnashuvi o‘ziga ma’lum bo‘lib qolgan paytdan e’tiboran bir ish kuni ichida mavjud manfaatlar to‘qnashuvi haqida belgilangan shakldagi xabarnomani to‘ldirishi va o‘zining bevosita rahbariga (tashkilot rahbariga — yuqori turuvchi rahbarga) yoki maxsus bo‘linmaga taqdim etishi shart, agar:

yaqin qarindoshlari bevosita xodimning bo‘ysunuvidagi ishga qabul qilingan bo‘lsa (davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining siyosiy guruhiga kiruvchi lavozimga ishga qabul qilingan hollar bundan mustasno) yoki xodimning ishiga fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida o‘ziga aloqador shaxslar jalb etilgan bo‘lsa;

u o‘ziga aloqador shaxslarga taalluqli masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etayotgan bo‘lsa;

yaqin qarindoshi tekshiruv o‘tkazilayotgan obyektida (yuridik shaxsda) tekshiruv yo‘nalishi bo‘yicha mas’ul mansabdor shaxs sifatida ishlayotgan bo‘lsa yoki mazkur tekshiruv obyekti (yuridik shaxs) unga aloqador shaxs bo‘lsa;

boshqa har qanday mavjud manfaatlar to‘qnashuvi o‘ziga ma’lum bo‘lib qolsa.

20. Kompaniya rahbar xodimi hamda maxsus bo‘linmaning rahbari manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish uchun mas’ul hisoblanadi.

Kompaniya tarkibiy bo‘linmasining rahbari mavjud manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha o‘z vakolatlari doirasida ko‘rilgan choralar to‘g‘risida maxsus bo‘linmaga bir ish kuni ichida axborot taqdim etishi shart.

Maxsus bo‘linma ko‘rilgan choralarning yetariligi (to‘g‘riligi) to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish uchun axborotni uch ish kuni ichida Odob-axloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasiga taqdim etadi.

3-§ Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya to‘ldirishning umumiy qoidalari

21. Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya 2-ilovada keltirilgan shaklda to‘liq ma’lumotlar ko‘rsatilgan holda to‘ldiriladi.

22. Kompaniya xodimi shaxsga doir ma’lumotlari o‘zgargan taqdirda, ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyani to‘ldirishi va har yili 15-yanvardan kechiktirmay maxsus bo‘linmaga taqdim etishi kerak.

23. Kompaniyaga ishga qabul qilinayotgan nomzod, shuningdek, boshqa ishga o‘tkazilgan xodim ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida belgilangan shakldagi deklaratsiyani to‘ldirishi va taqdim etishi kerak.

24. Maxsus bo‘linma:

ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi har yilgi deklaratsiyani har yili 15-fevralgacha umumlashtiradi va tahlil qiladi;

ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha choralarning yetariligini (to‘g‘riligini) ta’minlash uchun har yili 1-martga qadar Odob-axloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasiga taklif kiritadi;

Odob-axloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi tomonidan qabul qilingan xulosaga asosan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish yuzasidan choralar ko‘rish to‘g‘risida Kompaniya xodimining bevosita rahbariga yoxud Kompaniyaning yuqori turuvchi rahbariga taklif kiritadi.

25. Kompaniya xodimligiga nomzod ishga qabul qilinayotganda yoxud Kompaniya xodimi boshqa ishga o‘tkazilayotganda, ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etganidan keyin maxsus bo‘linma 24-bandda nazarda tutilgan ishlarni besh kunlik muddatda amalga oshiradi.

4-§ Kompaniya xodimiga aloqador shaxslar tomonidan taqdim etiladigan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya to‘ldirishning umumiy qoidalari

26. Kompaniya xodimiga aloqador shaxslar tomonidan taqdim etiladigan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya 3-ilovada keltirilgan shaklda to‘liq ma’lumotlar ko‘rsatilgan holda to‘ldiriladi.

6-BOB. AXBOROTNING KONFIDENSIALLIGI

27. Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish va aniqlashda ishtirok etadigan xodimlarga ishonib topshirilgan yoxud ularga kasbiy, xizmat yoki mehnat majburiyatlarini

bajarishi munosabati bilan ma’lum bo‘lib qolgan shaxslarning shaxsga doir ma’lumotlarini oshkor etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

28. Kompaniya xodimining faoliyatidagi manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish chog‘ida shaxsga doir ma’lumotlarni muhofaza qilish shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

29. Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan Kompaniyaning xodimlarida manfaatlar to‘qnashuvi fakti yoki gumoni haqidagi xabar bilan Kompaniyaga murojaat qilinganida uni ko‘rib chiqish maxsus bo‘linma va personal bilan ishlash uchun mas’ul bo‘linma bilan hamkorlikda mazkur Nizom va boshqa ichki hujjatlarga asosan amalga oshiriladi.

7-BOB. REYESTRNI YURITISH VA SAQLASHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

30. Kompaniyaning maxsus bo‘linmasi va PBIX manfaatlar to‘qnashuvi holatlarining hisobini mazkur Nizomning 4-ilovasiga muvofiq shaklda Reyestrda kiritish yo‘li bilan o‘z vaqtida va to‘liq yuritishlari shart. Bunda, filiallar tomonidan yuritiladigan Reyestrlar har chorak yakuni bo‘yicha keyingi oyning 5-sanasi qadar maxsus bo‘linmaga taqdim etilishi shart. Filiallar tomonidan Reyestrlar o‘z vaqtida va sifatli tayyorlangan holda taqdim etilmaganda, filiallarning PBIX boshlig‘i (boshliq vazifasi yuklatilgan xodim)ga nisbatan intizomiy jazo choralari qo‘llanilishi mumkin.

Taqdim etilgan Reyestrlardagi ma’lumotlar maxsus bo‘linma tomonidan Kompaniyaning umumiy Reyestriga birlashtirib boriladi.

Bunda, hududiy filiallar va tarkibiy bo‘linmalarning Reyestrda ma’lumotlar maxsus bo‘linma tomonidan tashkilotning umumiy Reyestriga birlashtirib boriladi. Umumiy Reyestr Kompaniyaning maxsus bo‘linmasiga har chorakda taqdim etib boriladi.

31. Ma’lumot Reyestrda quyidagi hollarda kiritilishi kerak:

Kompaniyaga ishga qabul qilishda – nomzod manfaatlar to‘qnashuvining mavjudligi/mavjud emasligi haqida arizada manfaatlar to‘qnashuvining mavjudligini ko‘rsatgan bo‘lsa va Kompaniya rahbari manfaatlar to‘qnashuvi kelib chiqishi mumkinligi faktini tasdiqlasa;

lavozimga tayinlash/rotatsiya qilish vaqtida manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilishda – Kompaniya rahbari tomonidan buyruq imzolangan paytdan boshlab uch ish kunidan kechiktirmasdan;

manfaatlar to‘qnashuvi kelib chiqishiga ko‘ra – PBIB/PBIX va xodimning bevosita rahbari tomonidan chora ko‘rilgan taqdirda;

Kompaniya xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi ma’lumotlar har yili deklaratsiya qilinganda – mazkur Nizomning 17-bandiga muvofiq;

manfaatlar to‘qnashuvining mavjudligi haqida aloqa kanallaridan olingan ma’lumot tasdiqlanganda;

ichki xizmat tekshiruvlari o‘tkazilganda va Kompaniyaning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va talablariga rioya qilinishi monitoring qilinganda hamda Kompaniya rahbari tomonidan Reyestrda ma’lumot kiritish haqida bevosita ko‘rsatma bo‘lganida.

32. Xodimlarning manfaatlar to‘qnashuviga tegishli bo‘lgan ariza va xabarnomalari hamda boshqa ma’lumotlar PBIB/PBIXda saqlanadi.

8-BOB. YAKUNIY QOIDALAR

33. Egallab turgan lavozimidan qat’i nazar, barcha xodimlar, ushbu Nizomning talablariga rioya qilish, shuningdek, o‘z manfaatlarining to‘qnashuvi to‘g‘risida Kompaniyaga o‘z vaqtida va to‘liq ma’lumot berish bo‘yicha shaxsan javobgar hisoblanadi.

34. Mazkur Nizom talablarini buzgan shaxslar belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

35. Mazkur Nizom bilan tartibga solinmagan talablar O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni va qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinadi.

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik
kompaniyasida manfaatlar
to‘qnashuvini boshqarish
to‘g‘risidagi nizomga 1-ilova

_____ ga
(bevosita rahbar (Kompaniya yoki filial
rahbari)ning yoki maxsus bo‘linma rahbarining
F.I.Sh. to‘liq)

_____ dan
(F.I.Sh. to‘liq)

_____ jismoniy shaxsning shaxsiy
identifikatsiya raqami

_____ (lavozimi to‘liq)

_____ (telefon raqami)

Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida X A B A R N O M A

“O‘zbektelekom” AKning 20 ____-yil “____” - _____ dagi “____” -son
buyrug‘iga asosan men,

_____ (F.I.Sh, lavozimi)

Sizga mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida quyidagilarni xabar qilaman:

(Shaxsiy manfaatlar (to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita) xizmat vazifalarini bajarishiga ta’sir
qilayotgan yoki ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan va xodimning shaxsiy manfaati bilan
Kompaniyaning manfaatlariga zid kelishi bo‘lgan vaziyatni tasvirlaydi).

_____ (F.I.Sh.)

_____ (imzo)

_____ (sana)

Xodimning bevosita rahbari tomonidan to‘ldiriladi

Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish uchun quyidagi choralar taklif
qilinadi: _____

(manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish uchun ko‘rilgan choralar ko‘rsatiladi)

_____ (Rahbarning F.I.Sh.)

_____ (imzo)

_____ (sana)

O‘zbektelekom” aksiyadorlik
kompaniyasida manfaatlar
to‘qnashuvini boshqarish
to‘g‘risidagi nizomga 2-ilova

Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida deklaratsiya

F.I.Sh. (to‘liq) _____
Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami _____
Tarkibiy bo‘linma nomi _____
Lavozim _____
To‘ldirilgan sana _____

Ushbu arizada quyidagi atamalar qo‘llaniladi:

yaqin qarindoshlar – ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o‘g‘illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari;

aloqador shaxslar – Kompaniya xodimining yaqin qarindoshlari; Kompaniya xodimi va (yoki) uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa, o‘sha yuridik shaxs; Kompaniya xodimi yoxud uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsda boshqaruv organining rahbari yoki a‘zosi bo‘lsa, o‘sha yuridik shaxs;

manfaatlar to‘qnashuvi – Kompaniya xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o‘z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to‘qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan (ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi) vaziyat;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi – Kompaniya xodimi yoxud u bilan aloqador shaxslar ushbu xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita qaror qabul qilinishi yoki xodimning ushbu jarayonda boshqacha tarzda ishtirok etishi natijasida olishi mumkin bo‘lgan har qanday naf yoki afzallik.

Yaqin qarindoshlari to‘g‘risida MA’LUMOT

Qarindoshlik darajasi	Familiyasi, ismi, sharifi	JShShIR	Ish joyi va lavozimi	Yashash manzili

Kompaniya xodimi/Yaqin qarindoshlari ustav kapitalida ulushga ega yoki boshqaruvida ishtirok etayotgan yuridik shaxslarga doir

MA’LUMOTLAR*

Familiyasi, ismi, sharifi	Yuridik shaxs nomi, ro‘yxatdan o‘tgan raqami	Egalik subyekti va qarindoshlik	Egalik ulushi / boshqaruvdagi roli	Yuridik shaxsning STIR

* bunda, Kompaniya xodimi/yaqin qarindoshlariga tegishli bo‘lgan ulushlar alohida-alohida ko‘rsatilishi shart.

1.	Siz boshqaruv organi (boshqaruv, Kuzatuv kengashi, direktorlar kengashi va hokazolar) xodimi, a‘zosi, qandaydir tashkilot direktori yoki vakilimisiz? Javob berayotganingizda tashkiliy-huquqiy va mulkiy shakli, shuningdek, mazkur tashkilotlardan qandaydir kompensatsiya olishingizdan qat’i nazar har qanday tashkilot, tijorat va notijorat tashkilotlaridagi o‘rningizni hisobga oling. (Izoh: «Ha» yoki «Yo‘q» javoblarini tanlang; agar javobingiz «Ha» bo‘lsa, izohlar satrida barcha tegishli tashkilotlar nomi va ulardagi o‘rningiz (lavzoimingiz)ni ko‘rsatib o‘ting.
	Ha / Yo‘q
	Izohlar:
2.	Sizda / yaqin qarindoshlaringizda qandaydir tashkilotlarda qandaydir moliyaviy manfaatdorlik bormi (jumladan, ustav kapitalida ishtirok etish, aksiya va obligatsiyalarga egalik qilish) yoki Siz boshqa tarzda bunday tashkilotlar qarorlariga ta’sir ko‘rsata olasizmi? (agar Siz har qanday tashkilotning ommaviy muomalada bo‘lmagan aksiyalari yoki ustav kapitalidagi ulushi yoki har qanday tashkilotning Respublika fond birjasi yoki boshqa fond birjasining ommaviy muomalasida bo‘lgan qimmatbaho qog‘ozlarining 10 va undan ko‘p foiziga egalik qilsangiz) (Izoh:«Ha» yoki «Yo‘q» javoblarini belgilang; agar javobingiz «Ha» bo‘lsa, «Izohlar» satrida barcha tegishli tashkilotlar nomi va Sizning ulardagi manfaatingiz turi, ustav kapitalidagi ishtirokingiz ulushi, aksiyalarga egalik qilish va hokazolarni ko‘rsatib o‘ting)
	Ha / Yo‘q
	Izohlar:
3.	Yaqin qarindoshlaringiz boshqaruv organlari (boshqaruv, kuzatuv kengashi, direktorlar kengashi va hokazolar) xodimi, a‘zosi, tashkilot direktori yoki vakilimi? Javob berayotganingizda tashkiliy-huquqiy va mulkiy shakli, shuningdek, mazkur tashkilotlardan qandaydir kompensatsiya olishidan qat’i nazar ularning har qanday tashkilot, tijorat va notijorat tashkilotlaridagi o‘rnini hisobga oling.

	(Izoh: «Ha» yoki «Yo‘q» javoblarini tanlang; agar javobingiz «Ha» bo‘lsa, izohlar satrida barcha tegishli tashkilotlar nomi va yaqin qarindoshingizning ulardagi o‘rni (lavzoimlari)ni ko‘rsatib o‘ting)
	Ha / Yo‘q
	<i>Izohlar:</i>
4.	Yaqin qarindoshlaringiz davlat organlarining mansabdor shaxsi hisoblanadimi? (Izoh: «Ha» yoki «Yo‘q» javoblarini tanlang; agar javobingiz «Ha» bo‘lsa, izohlar satrida <u>bunday qarindosh(lar)ingizning F.I.Sh.), uning (ularning) lavozimi va tashkilot nomini ko‘rsatib o‘ting</u>)
	Ha / Yo‘q
	<i>Izohlar:</i>
5.	Shaxsiy manfaatlaringiz, yaqin qarindoshlaringiz yoki aloqador shaxslar manfaatlari yo‘lida maxfiy hisoblangan, davlat organlari va tashkilotlarida ishlash davomida ma‘lum bo‘lgan axborotdan foydalanganmisiz (jumladan, qandaydir jismoniy shaxs yoki tashkilotga oshkor qilganmisiz)? (Izoh: «Ha» yoki «Yo‘q» javoblarini tanlang; agar javobingiz «Ha» bo‘lsa, izohlar satrida bu haqida batafsil yozing)
	Ha / Yo‘q
	<i>Izohlar:</i>
6.	Manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan boshqa shart-sharoitlar mavjud bo‘lsa, ularni ko‘rsatib o‘ting
	<i>Izohlar:</i>
7.	Zarur topsangiz, har qanday qo‘shimcha ma‘lumotni ko‘rsating.
	<i>Izohlar:</i>

Ushbu arizani imzolab, quyidagilarni tasdiqlayman:

- Menda manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan holatlar mavjud/mavjud emas (tegishli javobning tagini chizing).
- Men ushbu deklaratsiyada aks ettirilgan ma‘lumotlar to‘liqligi va haqqoniyligiga hamda men ushbu ma‘lumotlarni tegishli huquq-tartibot organlari tomonidan tekshirilishiga rozilik bildiraman.
- “O‘zbektelekom” AKda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom talablariga binoan, men to‘ldirgan har qanday deklaratsiyaning haqqoniyligiga ta’sir qiladigan **yangi holatlar to‘g‘risida** Kompaniyaga darhol xabar berish majburiyatini zimmamga olaman.

(F.I.Sh.)

(imzo)

(sana)

O‘zbektelekom” aksiyadorlik
kompaniyasida manfaatlar
to‘qnashuvini boshqarish
to‘g‘risidagi nizomga 3-ilova

**Kompaniya xodimiga aloqador shaxslar tomonidan taqdim etiladigan ehtimoliy
manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida deklaratsiya**

F.I.Sh. (to‘liq)/Yuridik shaxs nomi	
JShShIR/STIR	
Kompaniya xodimining F.I.Sh. (to‘liq)	
Kompaniya xodimi bilan qarindoshligi to‘g‘risida ma’lumotlar/ yuridik shaxsning Kompaniya xodimiga aloqadorligi to‘g‘risida ma’lumotlar	
To‘ldirilgan sana	
Ushbu arizada quyidagi atamalar qo‘llaniladi: yaqin qarindoshlar – ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o‘g‘illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari; aloqador shaxslar – Kompaniya xodimining yaqin qarindoshlari; Kompaniya xodimi va (yoki) uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa, o‘sha yuridik shaxs; Kompaniya xodimi yoxud uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsda boshqaruv organining rahbari yoki a‘zosi bo‘lsa, o‘sha yuridik shaxs; manfaatlar to‘qnashuvi – Kompaniya xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o‘z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to‘qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan (ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi) vaziyat; xodimning shaxsiy manfaatdorligi – Kompaniya xodimi yoxud u bilan aloqador shaxslar ushbu xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita qaror qabul qilinishi yoki xodimning ushbu jarayonda boshqacha tarzda ishtirok etishi natijasida olishi mumkin bo‘lgan har qanday naf yoki afzallik.	
1	Agar Sizning yaqin qarindoshlaringiz yoki aloqador shaxslar “O‘zbektelekom” AK va uning filiallarida ishlayotgan bo‘lsa, ularning lavozimini va tarkibiy bo‘linmasini ko‘rsating (agar ular ishlamasa, “yo‘q” deb yozing).
2	Agar Siz, Sizning yaqin qarindoshlaringiz yoki aloqador shaxslar tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etsa (yakka tartibdagi

	tadbirkorlar bo‘lsa), Sizning egallab turgan lavozimingiz manfaatlar to‘qnashuviga olib keladi deb o‘ylaysizmi? <i>(agar ishtirok etsa ularni ko‘rsating, ishtirok etmasa, “ishtirok etmaydi”, agar u manfaatlar to‘qnashuviga olib kelsa sababini ko‘rsating, olib kelmasa, “olib kelmaydi” deb ko‘rsating).</i>
3	Agar Siz, Sizning yaqin qarindoshlaringiz yoki aloqador shaxslar nodavlat notijorat tashkilotlarini boshqarishda qatnashsa, Sizning egallab turgan lavozimingiz manfaatlar to‘qnashuviga olib keladi deb o‘ylaysizmi? <i>(agar ishtirok etsa ularni ko‘rsating, ishtirok etmasa, “ishtirok etmaydi”, agar u manfaatlar to‘qnashuviga olib kelsa sababini ko‘rsating, olib kelmasa, “olib kelmaydi” deb ko‘rsating).</i>
4	Sizning yaqin qarindoshlaringiz yoki aloqador shaxslar davlat idoralarida va tashkilotlarida ishlaydimi? Agar javob “ha” bo‘lsa qaysi tashkilotligini, lavozimini ko‘rsating.
5	Sizga Kompaniya xodimlari tomonidan uning etika va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga oid ichki hujjatlarini buzish yoki ehtimoliy buzish bilan bog‘liq holatlar ma’lummi? <i>(Izoh: «Ha» yoki «Yo‘q» javoblarini tanlang; agar javobingiz «Ha» bo‘lsa, izohlar satrida bu haqida batafsil yozing)</i>
6	Lozim deb topsangiz qo‘shimcha ma’lumotlarni ko‘rsating.

Ushbu arizani imzolab, quyidagilarni tasdiqlayman:

- Menda manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan holatlar mavjud/mavjud emas (tegishli javobning tagini chizing).
- Men ushbu arizada aks ettirilgan ma’lumotlar to‘liqligi va haqqoniyligiga hamda men ushbu ma’lumotlar tegishli huquq-tartibot organlari tomonidan tekshirilishiga rozilik bildiraman.
- “O‘zbektelekom” AKda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom talablariga binoan, men to‘ldirgan har qanday arizaning haqqoniyligiga ta’sir qiladigan **yangi holatlar to‘g‘risida** Kompaniyaga darhol xabar berish majburiyatini zimmamga olaman.

(F.I.Sh.)

(imzo)

(sana)

O‘zbektelekom” aksiyadorlik
kompaniyasida manfaatlar
to‘qnashuvini boshqarish
to‘g‘risidagi nizomga 4-ilova

**Manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini hisobga olish
REYESTRI**

T/r	Ma’lumot olingan sana	Manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lgan xodimning F.I.Sh.	“O‘zbektelekom” AK tarkibiy tuzilmasi va xodimining lavozimi	Manfaatlar to‘qnashuvining predmeti	Manfaatlar to‘qnashuvining turi (haqiqiy yoki potensial)	Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha choralar	Odob-axloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi yig‘ilishi bayonnomasi raqami va sanasi, Kadrlar bo‘limi tomonidan qabul kilingan qaror rekvizitlari	Belgilangan choralarning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish bo‘yicha mas’ul shaxs
1	2	3	4	5	6	7	8	9
1								
2								
3								
...								